

## TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDA PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOV XIZMATLARI

**Boshmanova Dildora Maxram qizi**

*QDPI o'qituvchisi*

*E-mail:dildoraboshmanova8@gmail.com*

**Nabiyeva Dilinura Karimjon qizi**

*QDPI talabalari*

**Yo'ldasheva Muslimaxon Muxibillo qizi**

*QDPI talabalari*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada hozirgi o'zbek tilshunosligining yetakchi tilshunos olimlaridan biri professor Nizomiddin Mahmudovning o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi, nutq va uning turlari, nutqiy faoliyat, shuningdek, nutqiy ko'nikma to'g'risida so'z yuritilgan va maqolada keltirib o'tilgan mulohazalarga xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** til, lug'at, muloqot, nutq, nutqiy ko'nikma, lingvistika.

**Abstract:** in this article, one of the leading linguists of modern Uzbek linguistics, professor Nizomiddin Mahmudov, has made an incomparable contribution to the development of Uzbek linguistics, speech and its types, speech activity, and speech skills. Conclusions are given to the opinions presented in the article.

**Key words:** language, vocabulary, speaking skills, linguistics.

Hozirgi kunda tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarning yuzaga kelishi, tilshunoslikda nutqning o'r ganilishi bilan bog'lik ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu bois bugungi kunda tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo'naliishlarda qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Xususan, N.Mahmudov ayni soxanining eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida shunday yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'r ganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma' nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'r ganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'r ganish ob'ekti tamoman boshqadir".[1]

Mazkur maqolada buyuk tilshunoslarimizning munosib davomchisi filologiya fanlari doktori, professor, Nizomiddin Mahmudovning ilmiy faoliyatiga qisqacha to‘xtaldik va ma’naviy merosini oz bo‘lsada o‘rganishga harakat qildik.

Professor Nizomiddin Mahmudov o‘zbek tilshunosligening leksikologiya, semasiologiya, onomastika, nutq madaniyati, uslubshunoslilik va leksikografiya sohalari bo‘yicha qator salmoqli ishlar yaratdi. N.Mahmudovning o‘zbek nutq madaniyati va o‘zbek leksikologiyasi sohasidagi faoliyati – ushbu yo‘nalishlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ham salmoqlidir.

Istiqlol bois ona tilimizning qo‘llanish doirasi kengaydi. Jamiyatimizdagи oddiy yig`imdan oliy Majlis sessiyasidagi fikr almashinuvlarigacha davlat o‘zbek tilida olib borilayotganligi barchamizni behad quvontirmoqda.

Nutq madaniyati masalasi 60-70 yillarda qo‘yilgan bo‘lsa ham mustaqillik sababli unga jiddiy e’tibor qaratildi. Nutq madaniyatini rivojlantirishda nizomiddin Mahmudovning xizmatlari beqiyos. Uni nutq madaniyatidagi izlanishlari tufayli yaratgan asarlari adabiy norma va nutq madaniyati asarni hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari o‘zbek nutq madaniyati va uslubiy asoslari kabi asarlarida nutq chiroyli bo‘lishining ahamiyati va unga qanday yo‘l bilan erishish mumkinligi xususida o‘zining qimmatli fikr va mulohazalarini bildirib o‘tgan.

Tilshunos olim bugun hayoti davomida lisoniy ijodida lug‘atshunoslilik muammosi bilan ham jiddiy shug‘ullandi. Shunga ko‘ra olim turkiy tilshunoslilikda, o‘zbek tili izohli lug‘ati yo‘nalishida eng faxrli o‘rinlardan birini haqli ravishda egallaydi. Tilimizning lug‘at tarkibida o‘zimizniki bo‘lgan so‘zlardan tashqari boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham mavjud. Bu tabiiy holdir. Chunki o‘zbek xalqi o‘z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo‘lib kelgan. Mana shu aloqa-aratashuv natijasi o‘laroq tilimizga boshqa tillardan so‘zlar kirib, o‘zlashib ketgan. Shu nuqtai nazardan adabiy til so‘zlarini tarixiy kelib chiqishiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin: 1. O‘z qatlam so‘zları. 2. O‘zlashgan qatlam so‘zları.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, Nizomiddin Mahmudov o‘zbek tilshunoslari orasida ma’naviyatining targ‘ibotchisi, tashviqotchisi, jonkuyari sifatida ajralib turadi. Olim o‘zbek tilshunoslige qo‘shgan xissasini benihoyatda kattaligi sababli faqat qisqagina o‘z mulohazalarimizni keltirdik. Bugungi va kelajak avlodlar uchun yaratilgan meroslar uzoq yillar davomida xizmat qiladi. Tilshunos olim bugun hayoti davomida — lisoniy ijodida tilshunoslilik bilan ming-minglab fikrlarini bayon etdi. Ana shunday og‘ir, sermashaqqat mehnat natijasida o‘zbek

tiliga bag‘ishlangan o‘nlab yirik tadqiqotlar, yuzlab maqolalar maydonga keldi. Olimning keyingi ilmiy faoliyatlarida muvaffaqiyat tilaymiz.

## ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.10.
2. Makhramovna, B. D. (2023). Methodical Views of Nizamiddin Mahmudov. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 149-154.
3. Madina Hikmatuloevna Marupova, Aziz Saidolimovich Kubaev, & Alisher Isomidinovich Khazratov. (2022). THE ESSENTIAL ROLE OF DIAGNOSTIC AND TREATMENT METHODS FOR PATIENTS WITH TEMPOROMANDIBULAR JOINT PAIN DYSFUNCTION SYNDROME. *World Bulletin of Public Health*, 10, 141-142. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/1015>
4. Boshanova, D. (2023). Nizomiddin Mahmudovning lingvistik qarashlari. *Qo‘qon DPI. Ilmiy habarlar*.
5. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
6. Boshanova, D. (2023). HOZIRGI O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTIDA PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOVNING XIZMATLARI. *Jurnal. namdu. uz*, 3(3), 676-681.
7. Kizilhan, P., & Dildora, B. (2023, June). LANGUAGE AND CULTURE: THE PROBLEM OF THE RELATION AND INTERACTION. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 7, pp. 176-184).